



## INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA NOMUTAXASSIS TALABALAR UCHUN INFORMATIKA FANINI O’QITISH METODIKASI

**Muallif:** Abduraxmanova Dilbar Xudaybergenovna <sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** mustaqil tadqiqotchi <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14435303>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada innovatsion texnologiyalar asosida nomutaxassis talabalar uchun informatika fanini o’qitish metodikasi bo’yicha ayrim fikr-mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so’zlar:** innovatsiya, texnologiya, nomutaxassis talaba, informatika, o’qitish, metodika.

Innovatsion texnologiyalar asosida nomutaxassis talabalar uchun informatika fanini o’qitish metodikasini takomillashtirish borasidagi tadqiqot ishida nomutaxassis talabalarga informatika fanini o’qitish jarayonining innovatsion ta’lim texnologiyalari asosining mohiyati, shu jumladan axborotni tarqatish mantig’iga, informatika fanining bazaviy (tayanch) usullaridan foydalanishga qarab uyushgan innovatsion texnologiyalari asosida axborot-kognitiv faoliyat jarayonida informatika sohasini shakllantirish ochib berish; innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida informatika fanini nomutaxassis talabalarni o’qitish jarayonining samarali-baholovchi modeli taklif etiladi hamda shu jumladan mezon komponentlari: motivatsion-qiyamat, intellektual-kognitiv, innovatsion ta’lim texnologiyalari va baholash-tuzatish jarayonlarda o’rganib chiqiladi, shuningdek, shu asosda samaradorligiga maqsadli ta’siri asoslandi.

Biz tomonimizdan olib borilayotgan innovatsion texnologiyalar asosida nomutaxassis talabalar uchun informatika fanini o’qitish metodikasini takomillashtirish mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida quyidagi muammolar hal etildi. Jumladan:

pedagogik tadqiqotlar rejalar aniqlandi va nazariy jihatdan asoslandi o’z-o’zini nazorat qilishni yo’naltirish, tanishtirish, faollashtirish, axborot va kognitiv faoliyatni tashkil etish usullarini shakllantirishga hissa qo’shish va "Informatika" fan sohasida bazaviy (tayanch) bilimlarni o’zlashtirish darajasini oshirishni ta’minlash;

nomutaxassis talabalarga informatika fanini o’qitish jarayonida axborot va kognitiv faoliyatni tashkil etishga va nomutaxassis talabalarining o’quv materiallari bilan o’zaro munosabatlariga qaratilgan pedagogik vaziyatlarni (to’liq aniqlik holati, qisman aniqlik holati, to’liq noaniqlik holati) loyihalash imkoniyatlari asoslandi;

nomutaxassis talabalarga informatika fanini innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida o’qitish metodikasi ishlab chiqildi va hatto mualliflik metodikalar tavsiya etildi, joriy etilgan bo’lib, u pedagogika universitetlarining o’quv jarayonida ishlatilishi mumkin bo’lgan informatika fanini boshqa ta’lim yo’nalishi sohasidagi bazaviy (tayanch) bilimlarni o’zlashtirish darajasini oshirishga yordam berdi;

pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarining bo'lajak o'qituvchilarida informatika fanini o'qitishning mualliflik uslubini amalga oshiruvchi "Informatika" o'quv qo'llanmasi ishlab chiqildi va nashr etildi;

Informatika ta'lim yo'nalishidan tashqari bo'lgan pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini tayyorlashda foydalaniladigan o'quv materiallari ishlab chiqilishiga erishilindi.

texnologiyalar asosida nomutaxassis talabalar uchun informatika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish asoslari quyidagi qoidalar hisobiga ta'minlanadi:

informatika fani nomutaxassis talabalarga o'qitishda tayanch tushunchalarning pedagogika sohasini rivojlantirish uchun maxsus tashkil etilgan innovatsion texnologiyalari asosida axborot va kognitiv faoliyat jarayonida amalga oshirildi;

informatika fanini o'qitish jarayonida axborot va kognitiv faoliyatni joylashtirish mantig'i o'quv ma'lumotlarini joylashtirishning tuzilishi, mazmuni va mantig'i bilan o'zaro bog'liqdir;

informatika fanining asosiy usullari (tizimli yondashuv, axborotni modellashtirish, axborotni baholash usullari, axborotni qidirish va boshqalar) nomutaxassis talabaning axborot va kognitiv faoliyati usullariga aylandi;

informatika fanini nomutaxassis talabalarni o'qitish jarayonining samarali-baholovchi modeli sifatida tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida amalga oshirildi. Bunda asosiy mezon sifatida motivatsion-qiyamat, intellektual-kognitiv, innovatsion ta'lim texnologiyalari va baholash-tuzatish olindi.

Nomutaxassis talabalarga informatika fanini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish metodikasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) informatika fani sohasidagi bilim, ko'nikma va faoliyat usullarini rivojlantirishning pedagogik tadqiqotlar rejalari (yo'naltirish, tanishtirish, o'z-o'zini nazorat qilishni faollashtirish);

b) axborot va kognitiv faoliyatni tashkil etish va talabaning o'quv materiallari bilan o'zaro munosabati bo'yicha pedagogik vaziyatlar (to'liq aniqlik holati, qisman aniqlik holati, to'liq noaniqlik holati);

c) axborot faoliyatini tashkil etishning har xil turlari;

d) informatika fanining o'rganilayotgan jihatlarini rag'batlantirish va baholashga hissa qo'shadigan o'qitish usullari va shakllarining maxsus to'plamidan foydalanish va uni amalga oshirish. Shu o'rinda informatika fanini o'qitish asosida pedagogika fan sohasidagi bazaviy (tayanch) bilimlarni samarali o'zlashtirishga imkon berdi.

Innovatsion texnologiyalar asosida nomutaxassis talabalar uchun informatika fanini o'qitish metodikasini tahlili yuzasidan quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

umuman olganda mavzuni o'rganishi jarayoni innovatsion texnologiyalar asosida nomutaxassis talabalar uchun informatika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish modelini ishlab chiqishni taqazo etdi;

informatika fanini o'qitish jarayonining samarali-baholovchi modeli o'zaro bog'liq va o'zaro bog'liq komponentlar tizimi (intellektual - kognitiv, motivatsion-qiyamat, axborot - faoliyat, baholash-tuzatish) sifatida ko'rib chiqilishi kerak, bu esa bilimlarning talaba ongida "qolishi" ni o'rganishga imkon beradi, axborot va kognitiv faoliyatni tahlil qilindi;

komponentlarning sifat xususiyatlarining namoyon bo'lishiga qarab, bazaviy (tayanch) bilimlarni o'zlashtirishning yuqori, o'rta, past darajasi aniqlanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakillantirish. Toshkent. Fan. 2004.

Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondoshuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari. Ped. fan. dok. ... diss. –T., 2019. -237 b.;

Mamarajabov M. "Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish" . Ped. fan. dok. ... diss. –T., 2023. - 258 b.

